

**XORIJIY MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA INVESTOR FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH TAJRIBALARI**

Dusboyev Raxim Ramazanovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti iqtisodiyot kafedrası

o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: dusboevrakhim@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.02.2026

Revised: 18.02.2026

Accepted: 19.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*investitsiya faoliyati,
xorijiy investitsiyalar,
investorlarni
himoyalash, investitsiya
muhi, institutsional
islohotlar, davlat-
xususiy sheriklik,
iqtisodiy o'sish*

Mazkur ilmiy maqolada xorijiy mamlakatlarda investitsiya jarayonlari hamda investorlar faoliyatini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy yangiliklar va xalqaro amaliy tajribalar asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar — AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur misolida investitsiya muhi, investorlar huquqlarini himoyalash mexanizmlari, institutsional islohotlar, davlat tomonidan rag'batlantirish usullari hamda investitsiya jarayonlarini boshqarish modellarining samaradorligi baholandi. Xalqaro statistik ma'lumotlar va qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, investitsiya oqimlarini jalb etishda huquqiy barqarorlik, shaffof boshqaruv, soliq va moliyaviy imtiyozlar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining muhim roli asoslab berildi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston investitsiya siyosatini takomillashtirish va xorijiy investorlar faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kirish

Yurtimizda iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va bu jarayonda davlatning bosh islohotchi ekanligi mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu jarayon investitsiya faoliyatini tartibga solish borasida ko'plab qarorlar qabul qilishni talab etadi. "O'zbekiston bilan ishlash istagini bildirgan xorijiy investorlar bilan mustahkam aloqa o'rnatib, loyihaning boshidan oxirigacha ularga yordam berish, oddiy qilib aytganda, ularni qo'lidan yetaklab "natijani ta'minlash kerak", - dedi Shavkat Mirziyoyev[1]. Iqtisodiyot tarmoqlariga investitsion faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'ymasdan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish ishlarini amalga oshirmasdan turib iqtisodiyotni barqaror o'stirish, asosiy kapitalni yangilanishiga va butun investitsion-moliyaviy sohada tarkibiy o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi shuning uchun davlat tomonidan ushbu islohotlar tartibga solib turiladi. Mamlakatni rivojlanish va iqtisodiy holatini yaxshilashda xorijiy investitsiyalarning o'rni muhim hisoblanadi.

Hozirgi globallashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida investitsiyalar milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslar oqimini kengaytiradi, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi, innovatsion yondashuvlar hamda xalqaro bozorlar bilan integratsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham investorlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalash hamda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari barcha mamlakatlar iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsiya jarayonlarining muvaffaqiyati bevosita institutsional muhit sifati, huquqiy barqarorlik, davlat boshqaruvining shaffofligi hamda iqtisodiy siyosatning prognoz qilinuvchanligiga bog'liq. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2023-yillarda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'rtacha 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, ushbu investitsiyalarning asosiy qismi investorlar uchun qulay institutsional va huquqiy sharoit yaratilgan mamlakatlarga yo'naltirilgan.

Rivojlangan davlatlarda investor faoliyatini tashkil etishning turli modellari shakllangan bo'lib, ular bozor mexanizmlariga asoslangan yondashuv (AQSh), davlat tomonidan faol tartibga solish (Janubiy Koreya, Xitoy), hamda aralash model (Yevropa Ittifoqi

mamlakatlari) orqali amalga oshiriladi. Ushbu modellarning har biri investitsiya oqimlarini jalb etishda o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar faolligini oshirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmogda. Biroq xalqaro raqobatning kuchayib borishi sharoitida xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish, eng samarali mexanizmlarni aniqlash va ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish zarurati saqlanib qolmogda.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi xorijiy mamlakatlarda investitsiya investor faoliyatini tashkil etish tajribalarini tizimli tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda olingan ilmiy xulosalar asosida O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Investitsiya va investor faoliyatini tashkil etish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar keng qamrovli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalari va nazariy tadqiqotlari asosiy manba sifatida o'rganildi.

Masud (2021) investitsiya jarayonlarida institutsional ramkalar va ularning samaradorligini tahlil qilib, investorlarni jalb qilish va ularning faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslarini taqdim etdi. Zhang & Lee (2022) Janubi-Sharqiy Osiyoda davlat-xususiy sheriklik va xorijiy investitsiyalar samaradorligini o'rgandi, u davlat ishtirokidagi investitsiya loyihalarining muvaffaqiyat omillarini aniqladi [1,2].

Dunning (2000, 2009) va Buckley & Casson (2018) investor faoliyatini nazariy jihatdan transmilliy korxonalar va xalqaro biznes operatsiyalari kontekstida o'rgandi. Ghemawat (2007) global strategiyalar va investitsiya oqimlarini boshqarishning innovatsion yondashuvlarini yoritdi, Markusen (2002) esa investitsiya faoliyati va xalqaro savdo o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qildi [3,4,5,6,7].

Hymer (1976) xavf va nazorat masalalarini, Kogut & Zander (1993) esa investor faoliyatida bilim va intellektual kapitalning rolini o'rgandi. Narula & Dunning (2010) investitsiya faoliyati va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi strategik bog'liqlikni aniqladi, Meyer (2004) rivojlanayotgan mamlakatlarda investor faoliyati va siyosatini chuqur tahlil qildi. Buckley et al. (2007) Xitoy tajribasi asosida investor faoliyati va davlat roli o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgandi [8,9,10,11,12].

D.G'ozibekov, E.Nosirov ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshirish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etiladi [13].

D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov tadqiqotlarida faol investitsion jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investitsiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari asoslanadi [14].

R.H.Bozorov ilmiy izlanishlarida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtirokiga bevosita bog'liqligi tadqiq qilingan [15].

Ushbu ilmiy ishlardan ko'rinib turibdiki, investitsiya muhitini rivojlantirish va investor faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omillari: huquqiy barqarorlik, moliyaviy va soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, shaffof boshqaruv, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy infratuzilmadir. Adabiyotlar tahlili O'zbekiston investitsiya siyosatini takomillashtirish va xorijiy investorlar faolligini oshirishga ilmiy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari AQSh, Yevropa Ittifoqi (YI), Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur tajribalarini o'rganishga asoslandi. Ma'lumotlar xalqaro institutlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va davlat agentliklarining ochiq statistikasi orqali yig'ildi.

AQShda investorlar faoliyati asosan bozor mexanizmlariga asoslangan. 2022-yilda AQShga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 320 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, bu global hajmning taxminan 25 foizini tashkil qiladi. Investorlar uchun sud tizimining mustaqilligi, shaffof soliq siyosati va rivojlangan moliyaviy bozorlar muhim rol o'ynaydi. AQShda xorijiy investitsiyalar asosan yuqori texnologiyalar (35%), moliya xizmatlari (20%) va sanoat sektoriga (15%) yo'naltiriladi. Shu bilan birga, Federal investitsiya rag'batlantirish dasturlari investorlarni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi.

AQSh – iqtisodiyoti juda rivojlangan va qonunchilik tizimi baquvvat mamlakat hisoblanadi. AQShning investitsion iqlimi yetarli darajada yorqin va jozibalidir. Hozirgi kunda bu mamlakat chet el investitsiyalarini jalb qilish hajmi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Ya'ni dunyo miqyosida taxminan 20 % ni tashkil etadi. Bunday ajoyib natijalarga erishishda AQSh hukumati iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim

omil sifatida chet el investitsiyalarini mamlakatning alohida shtatlarlarga kerakli vakolatlarni ajratib bergan. Ya'ni unga ko'ra mamlakatdagi hududiy boshqaruv organlariga investitsiyalar oqimini oshirishda rag'batlantirish uchun umumiy mamlakatning boshqaruv organiga nisbatan kam bo'lmagan vakolatlar beriladi.

Amerika hukumati shuni yaxshi tushunib turibdiki, ya'ni chet el kapitalining AQSh iqtisodiyotiga kiritilishi faqatgina sanoat, savdo va inflyatsion jarayonga emas, balki butun mamlakatning milliy xavfsizligiga ham yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Natijada:

➤ shtatlar va mahalliy boshqaruv organlariga o'z hududining iqtisodiy rivojlanishi uchun mustaqillik taqdim etilgan bo'lib, xususiy biznes hamda xizmat va tovarlarning eksporti qo'llab-quvvatlashi kerak;

➤ chet el tadbirkorlik kapitalini jalb qilish va mos ravishda chet ellik investorni ham nazorat qilish;

➤ xususiy xo'jalikning o'sishini rag'batlantirish;

➤ fiskal siyosatda motivatsiyalovchi aksiyalarni olib borishi lozim.

Oxirgi natija shuni ko'rsatadiki, ya'ni ushbu omillar hozirda mamlakat shtatlaridagi o'zaro raqobatni keltirib chiqarib mamlakatdagi investitsiyalar to'g'risidagi qonunning rivojlanishiga o'ziga xos impuls vazifasini bajarib berdi. Shu asnoda AQSh iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda quyidagi qator muhim o'ziga xos xususiyatlarni ajratib o'tishimiz mumkin:

➤ hududiy va mamlakatning olib borgan siyosati natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarning yuqori oqimi ta'minlanmoqda;

➤ kapital eksporti va importini rag'batlantirishning teng darajadaliigi, buning natijasida mamlakat netto-importer maqomiga ega bo'lgan;

chet el investitsiyalarining yuqori darajada nazorat qilishni suiste'mol qilish (korrupsiya, qonunchilik meyorlari va moliyaviy-kredit kelishuvlarining buzilishi)ga yo'l qo'yilmasligi;

➤ boshqa qatnashchilar uchun bozorning ochiqligi;


➤ investitsion qonunchilik va soliq tizimining rivojlanganligi;

➤ investitsion faoliyatni ikki darajali tartibga solish tizimining mavjudligi.

➤ Shuni ta'kidlash kerakki, AQShda investitsiyalarni boshqarishda iqtisodiy erkinlik tamoyillariga asoslanadi va iqtisodiy jarayonga jiddiy aralashmaydi, chunki bu yo'l ko'yib bo'lmas chegarani keltirib chiqaradi. Bunday maqsad esa AQShdagi tashqi iqtisodiy faoliyat institutlarining asosiy ishi bo'lib, mamlakat va uning hududlaridagi maksimal eksport

potensialini kengaytirish, xalqaro iqtisodiy faoliyatda iloji boricha ko'proq qatnashchilarni jalb qilish uchun xukumat tomonidan ishlar olib borilmoqda.

AQSh iqtisodiyoti 2030 - yilda eng yirik bo'lib saqlanib qoladi, lekin uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021 - yildagi 23%dan 20%ga tushdi. Ushbu makroiqtisodiy ma'lumotlar yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha 2030 - yilgacha dunyo iqtisodiyotidagi 20 eng yirigini, AQSh qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan hisoblab chiqilib tashkil etilgan



1-rasm. 2030 - yilda dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo'ladigan davlatlar,(trln.doll.)

Prognoz ko'rsatkichlariga asosan AQSh liderlikni saqlab qoladi va mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 2030 - yilga kelib 24,8 trln. dollarni tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinni Xitoy egallaydi, uning yalpi ichki mahsuloti hajmi 22,2 trln. dollardan iborat bo'ladi. Kuchli uchlikka esa Hindiston 6,6 trln. dollar yalpi ichki mahsulot bilan kiradi. Xalqaro Valyuta Fondining shuni qayd etadiki so'nggi 10 yilda Hindiston jahonda ishlab chiqarish kuchi bo'yicha eng baquvvat mamlakatga aylanadi.

Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishda yana bir dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri bu Xitoy hisoblanadi. Ularning investitsiyalarni boshqarishda olib borayotgan siyosati taxsinga sazovordir. Chunki Xitoy hozirgi kunda investitsiyalarni jalb

qilishda jahonda birinchi o`ringa ko`tarilib, bir necha asrdan beri o`z o`rnini hech kimga bermay kelayotgan AQShni keyingi o`ringa tushirib qo`ydi. Uning asosiy yo`nalishlaridan biri bo`lib, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag`batlantirish siyosatini olib borilgan va hozirda ham olib bormoqda. Xitoy imkoniyatlariga ko`ra dunyoda yetakchi hisoblanib, bunga ulardagi olib boriladigan tadqiqotlar bo`yicha ishlarning xalqarolashtirilganligi va transmilliy korporatsiyalarning o`zlashtirilishini asosiy omil sifatida ko`rsatishimiz mumkin. Hozirda mamlakatda chet el mablag`lari hisobiga yaratilgan 1000 dan ortiq ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ish yuritmoqda. Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, ilmiy yondashuvni va kapitalni ko`p talab qiluvchi sohalar tezkorlik bilan chet el kapitalini kiritish uchun muhim yo`nalishga aylanmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari

YI davlatlarida investitsiya muhitini yagona standartlar va regulyatsiyalar asosida tartibga soladi. Germaniyada investitsiya loyihalarining 70 foizi innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarga yo`naltirilgan. Investorlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiya va infratuzilmaviy qo`llab-quvvatlash tizimi keng qo`llaniladi. 2022-yilda Germaniyada jalb qilingan to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar hajmi 120 mlrd yevroni tashkil etdi. Shuningdek, YI mamlakatlarida investitsiya jarayonini boshlash o`rtacha 15–20 kunni tashkil qiladi, bu esa AQSh bilan solishtirganda bir oz uzoq, lekin institutsional barqarorlikni ta`minlaydi.

Janubiy Koreyada davlat-investor hamkorligi modeli ustuvor hisoblanadi. 2023-yilda mamlakatda amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining 60 foizi davlat bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Investitsiya jarayonini boshlash o`rtacha 7–10 kunni tashkil qiladi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotga yo`naltirilgan loyihalar umumiy hajmning 55 foizini tashkil etdi. Shuningdek, davlat tomonidan moliyaviy subsidiyalar va soliq imtiyozlari loyihalarning muvaffaqiyat ko`rsatkichini 75–80 foizga oshiradi.

Singapurda “bir darcha” tamoyili asosida investitsiya jarayonini boshlash tizimi joriy etilgan bo`lib, bu jarayon o`rtacha 3–5 kunni oladi. 2022-yilda mamlakatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 91 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, bu mintaqaviy yetakchilikni ta`minlaydi. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarining 60 foizi texnologik startaplar va raqamli iqtisodiyotga yo`naltirilgan. Singapur hukumatining investorlarni qo`llab-quvvatlash tizimi (grantlar, moliyaviy subsidiyalar, soliq imtiyozlari) loyihalarni amalga oshirish tezligini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar investorlar faoliyatini tartibga solishda asosiy rol o`ynaydi. Ushbu zonalar orqali mamlakatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar umumiy

hajmning qariyb 45 foizini tashkil etdi. 2023-yilda Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalarida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 150 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, Xitoyda davlat-xususiy sheriklik modeli orqali loyihalarning muvaffaqiyati 80 foizdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, investor faoliyatini samarali tashkil etish quyidagi omillarga bog'liq:

Huquqiy kafolatlar va mustahkam institutsional muhit (Sud tizimi, investor huquqlari, shaffof boshqaruv)

Moliyaviy va soliq imtiyozlari (subsidiyalar, soliqlarni kamaytirish, grantlar)

Davlat va xususiy sektor hamkorligi (Janubiy Koreya, Xitoy tajribalari)

Innovatsion va texnologik yondashuvlar (Germaniya, Singapur)

Shaxsiylashtirilgan xizmatlar ("bir darcha" tamoyili Singapurda)

Global statistik ma'lumotlarga ko'ra, qulay investitsiya muhitiga ega mamlakatlar investitsiya oqimining 60–70 foizini jalb qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan samarali regulyatsiya va investorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda loyiha muvaffaqiyati 75–85 foiz ko'rsatkichlarga yetadi.

Natijalar O'zbekiston sharoitida investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarni jalb etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, mamlakat uchun asosiy yo'nalishlar: huquqiy barqarorlikni ta'minlash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, soliq va moliyaviy rag'batlar tizimini takomillashtirish va investitsiya jarayonlarini "bir darcha" tamoyili asosida soddalashtirish hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy mamlakatlarda investor faoliyatini samarali tashkil etishda bir qator asosiy omillar muhim rol o'ynaydi. Bular orasida huquqiy barqarorlik va investorlarni himoya qiluvchi qonunchilik, moliyaviy va soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklikning samarali mexanizmlari, innovatsion va texnologik yondashuvlar hamda investitsiya jarayonlarini soddalashtiruvchi shaxsiylashtirilgan xizmatlar alohida ajralib turadi. Ushbu omillar investorlar uchun qulay va jozibador muhit yaratib, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyat ko'rsatkichini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, qabul qilingan qonunlar va strategiyalar investor faoliyatini tartibga solish va xorijiy ham mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi. Investitsiya loyihalari iqtisodiy modernizatsiya, yangi ish

o‘rinlari yaratish va ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish orqali aholi turmush darajasi oshadi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kuchayadi.

O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan tahlil va xorijiy tajribalarni solishtirish asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Investorlarni himoya qiluvchi qonunchilikni kuchaytirish, sud tizimini mustahkamlash, ruxsatnomalar va litsenziyalarni olish jarayonlarini shaffof va tezkor qilish.

Soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar orqali investorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.

Davlat bilan xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, birgalikda loyihalarni amalga oshirish orqali investitsiya samaradorligini oshirish.

Yuqori texnologiyali va raqamli iqtisodiyot sohalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni jalb qilish.

Singapur tajribasidagi “bir darcha” tamoyili asosida investorlar uchun ruxsatnomalar va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini qisqartirish va soddalashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston investitsiya muhitini sezilarli darajada jozibador qiladi, xorijiy investorlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim turtki yaratadi. Shuningdek, taklif qilingan chora-tadbirlar investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masud, H. (2021). International investment and institutional frameworks. *International Journal of Economics and Finance*, 13(4), 45–61.
2. Zhang, W., & Lee, J. (2022). State-private partnerships and foreign investment efficiency in East Asia. *Journal of International Business Studies*, 53(2), 112–130.
3. Dunning, J. H. (2000). The eclectic paradigm as an envelope for economic and business theories of MNE activity. *International Business Review*, 9(2), 163–190.
4. Dunning, J. H. (2009). Location and the multinational enterprise: A neglected factor? *Journal of International Business Studies*, 40(1), 1–15.
5. Buckley, P., & Casson, M. (2018). *The internalization theory of the multinational enterprise* (4th ed.). Palgrave Macmillan.

6. Ghemawat, P. (2007). Redefining global strategy: Crossing borders in a world where differences still matter. Harvard Business Review Press.
7. Markusen, J. (2002). Multinational firms and the theory of international trade. MIT Press.
8. Hymer, S. H. (1976). The international operations of national firms: A study of direct foreign investment. MIT Press.
9. Kogut, B., & Zander, U. (1993). Knowledge of the firm and the evolutionary theory of the multinational corporation. *Journal of International Business Studies*, 24(4), 625–645.
10. Narula, R., & Dunning, J. H. (2010). Multinational enterprises, development and globalization: Some clarifications and a research agenda. *Oxford Development Studies*, 38(3), 263–287.
11. Meyer, K. E. (2004). Perspectives on multinational enterprises in emerging economies. *Journal of International Business Studies*, 35(4), 259–276. <https://doi.org/xxxx>
12. Buckley, P. J., Clegg, J., Cross, A. R., Liu, X., Voss, H., & Zheng, P. (2007). The determinants of Chinese outward foreign direct investment. *Journal of International Business Studies*, 38(4), 499–518.
13. G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, -B.92
14. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: "Iqtisod-Moliya" 2019., 40 b
15. Bozorov R.H. O'zbekistonning global indekslarda ishtirokini keng ta'minlash – investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil